

MILLIY HARAKATLI O'YINLARNI O'RGATISHDA XALQ AN'ANALARIDAN FOYDALANISH



Podpolkovnik Imonali Imonalievich Sheraliyev

O'R QKA kafedra katta oqituvchisi,

*подполковник, старший преподаватель кафедры,
Академия Вооруженных Сил, Республика Узбекистан*

*Lieutenant Colonel, senior instructor of the department,
Academy of the Armed Forces, Republic of Uzbekistan*

Hozirgi vaqtda jismoniy tarbiya harakati oldida: jismoniy tarbiya va sportni mexnatkashlarning kundalik xayotiga ko'proq singdirish, yoshlarni jismoniy tarbiya va sportdan keng foydalanish, mexnatkashlarning sog'ligini yaxshilash va ularni Vatan mudofaasiga tayyorlash va shu singari katta vazifalar turadi. Milliy harakatli o'yinlar esa, ana shu maqsadda juda keng qo'llanilib kelinayotgan muhim jismoniy tarbiya va sport vositalaridan biridir.

O'yin odamlarga xos faoliyatning muayyan formalaridan biridir. O'yin tushunchasi yosh bolaning shakildoq bilan bajaradigan oddiy xarakatlaridan tortib, kattalarning to basketbol, voleybol, xokkey va boshqa juda ko'p sport turlarida amalga oshiradigan jismoniy faoliyatlarini o'z ichiga oladi. O'yin shartli qo'yilgan maqsadga erishishga qaratilgan ongli faoliyatdir. O'yinda qandaydir moddiy boyliklar ishlab chiqarilmaydi. O'yinning maqsadi o'zida.

Milliy o'yinlar tarixiy jarayondir. U jamiyat rivojlanishining dastlabki bosqichlarida paydo bo'lgan. O'yin insonga go'dakligidan to qariguncha hamroxdir. O'yinga faqat jismoniy tarbiya vositasi sifatida qarash noto'g'ri bo'ladi. Chunki, u shaxsning tarbiyasi va shakllanishiga umumiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois o'yin doimo pedagoglar, psixologlar, faylasuflar, san'atshunoslar, tibbiyot xodimlari va boshqalarning diqqatini o'ziga tortib kelgan.

Hozirgi paytda o'yinning paydo bo'lishi va rivojlanishi haqida ikkita: materialistik va idealistik qarash mavjud. Materialistlarning fikricha o'yinni mehnat keltirib chiqaradi va uning rivojlanishini belgilaydi. Idealistlar esa, o'yinni doimiy, o'zgarmas, deydilar va u mexnatga nisbatan birlamchi deb isbotlamoqchi bo'ladilar. Idealistik g'oya tarafdorlari o'yinda faqat tug'ma sezgilarnigina ko'radilar. O'yin va mexnatni bir-biriga qarma-qarshi qo'yadilar. Odamlarning ongli o'yini va hayvonlarning ongsiz harakatlari orasidagi farqni ko'rmaydilar.

Bizga ma'lumki. Xalq an'analari, urf odatlarida ibrat olsa arzigulik axloqiy normalar mavjud. An'analar o'zbek halqimiizning asrlar davomida shakllanib kelgan beqiyos tarixiy qiyofasidir. Biz an'analarimizni, urf-odatlarimizni qanchalik chuqur

o'rgansak, ulardan ta'lim jarayonida unumli foydalansak, muvaffaqiyatimiz samarali bo'ladi.

Xalq an'analaridan ta'lim jarayonida foydalanish, o'quvchi-yoshlarimizning o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni boshqaradi, aloqalarni mustaxkamlaydi. Ularni muayyan maqsadga undaydi. O'quvchi-yoshlarimizning xayotda faol yo'l tutishini ko'p jixatdan, ularning madaniy, ma'rifiy, ma'naviy va jismoniy kamoloti belgilab beradi. Ayniqsa, tobora ommalashib borayotgan "Sog'lom avlod uchun", deb nomlangan shiorning tantanasi biz belgilab olgan maqsad va vazifalarning yechimini xal qilish bilan bevosita bog'liqdir. Xozirgi kunda mamlakatimizda o'tkazilayotgan uch bosqichli – "Umid nixollari", "Barkamol avlod" va "Universiada" kabi sport musobaqalari yoshlarimizni jismonan yetuk, axloqan teran, ma'nan boy bo'lib shakllanishida yetakchi o'rin egallab kelayotir. Milliy xarakatli o'yinlarning yaratilishi, bu bir kishi faoliyati bilan bog'liq emas. Aksincha, ularni halq yaratgan.

O'zbek halqining azaliy urf-odatlar, madaniy merosi, an'ana va umuminsoniy fazilatlar bilan boyitilgan va to'ldirilgan. Milliy harakatli o'yinlar o'quvchi-yoshlar jismoniy tarbiyasida, ularni sog'lom, ezgu maqsadlar yo'lida birlashtiruvchi manba xisoblanadi. O'quvchilarga milliy harakatli o'yinlarni o'rgatishda: o'qituvchilarimiz halq ananalari mazmun-moxiyatini chukur ilg'ashi, tushunishi va ularni yaxlit tarzda o'tilayotgan mavzuni tushuntirishga yo'naltira olish qobiliyati va mahoratiga ega bo'lishi kerak.

Xususan, o'qituvchilarni o'zbek halqining ibtidosi. Millat sifatidagi shakllanishi va taraqqiy topishi nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda milliy harakatli o'yinlarni o'rgatish, o'quvchi-yoshlarning ruhiy his-tuyg'ulariga ta'sir eta oladigan. Ularda ma'lum bir o'yin bilan bog'liq tushunchalarni o'zlashtirishga ishtiyoq va rag'bat uyg'ota oladigan uslub va shakllarni izlab topish, tegishli an'analar bilan bog'liq milliy xarakatli o'yinlarni kuzatish davrida olgan nazariy bilimlarini amalda, ya'ni mashg'ulotlarda mustaxkam o'zlashtirishga imkon yaratishi samaradorlikka erishishning muhim me'zonlari xisoblanadi.

Bizga ma'lumki oila milliy urf-odat va an'alarimizning ilk manbai xisoblanadi. Unda o'sib kelayotgan barkamol avlod ana shu urf-odat qadriyat va an'analar asosida kamol topadi, tarbiyalanadi. Turmush madaniyatimizdagi an'analar, urf-odatlar, marosimlarning tarbiyaviy ijtimoiy mazmuni bilan ifodalanadi. Chunonchi, urf-odatlar marosimlar va sayllar do'stlik, mexnatsevarlik, o'zaro xamkorlik, tenglik, vatanparvarlik g'oyalari bilan sayqallangan qadimiy xalq an'alariga suyanadi, ayni damda ularga yangi ma'no va mazmun beradi. Hozirgi kunda xam amalda bo'lgan "Oila, maxalla, maktab" konsepsiyasi doirasida shu yo'nalishdagi maqsadli ishlar olib borilmoqda. Xususan oila, maxalla, maktab xamkorligi o'quvchi-yoshlarni milliy xarakatli o'yinlarni o'rgatishda halq an'ana va urf-odatlaridan foydalanishni tashkil etishimizda, o'ziga xos amaliyot maktabini o'taydi. Aynan mahallalarda

o'tkazilayotgan "Obod maxalla" "Maxallamiz futboli", "Namunali xonadon", "Mahallamizda Navro'z" "Hosil bayrami" kabi qadimiy va zamonaviy an'ana, tadbir va marosimlar yoshlarni har tomonlama yetuk tarbiyalashda ulkan ta'sir kuchini o'tkazadi. Ayniqsa mahallamiz xuzurida qad roslagan sport inshootlari ma'naviyat va ma'rifat xonalari o'zbek halq xunarmandchiligi bilan bog'liq turli yo'nalishdagi to'garaklardagi tashkil qilinganligi tarbiyaviy muhitning yuksak darajada shakllanganligidan dalolat beradi.

Ayniqsa, mashg'ulotlardan bo'sh paytlarda kursantlarimizning jamoa bo'lib akademiyaga biriktirilgan mahalla, guzarlarda to'p surishlari, turli xil harakatli o'yinlarni mustaqil ravishda o'yinlari kishini quvontiradi va sog'lomlashtiruvchi vosita bo'lib xam xizmat qiladi.

Ta'lim va tarbiya mazmuniga qo'shimcha ravishda tashkil etilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-tarbiyaviy, ta'lim jarayonida qadim urf-odat va an'analardan foydalanish manbalari ulkan imkoniyatlar yaratadi. Jumladan, o'zbek halq qahramonlari, tarixiy shaxslar, buyuk allomalarimiz nomi bilan bog'liq holda o'tkaziladigan sport tadbirlarimizning keng va ommaviy tarzda tashkil etilishi o'quvchi yoshlarga, ularning hayotiy yo'li, beqiyos faoliyatini va jaxon sivilizatsiyasiga qo'shgan xizmatlarini tushuntirishimizda keng imkoniyat yaratmoqda.

Misol tariqasida aytmoqchi bo'lsak, oliy harbiy ta'lim muassalari va mahalla guzarlarida Paxlavon Mahmud, sohibqiron Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi ulug' siymolar jasorati hamda buyuk jadidlarimiz xotiralariga bag'ishlab o'tkaziladigan "Kurash", "Ko'pkari" "Uloq" kabi tadbirlar o'quvchilar ongiga nafaqat bilim, xattoki, halq milliy an'analardan foydalanish, quyidagilarni nazarda tutish lozimligi bilan belgilanadi:

- 1.O'quvchi-yoshlarimizning jismoniy barkamolligiga,chiniqishiga;
- 2.Umumiy ish qobiliyatining o'sishiga yordam berish;
- 3.Xar xil sharoitlarda erkin harakat qila olish imkonini beradigan bilimlar va harakat malakalarini hosil qilish;
- 4.Hayotiy faoliyatga yordam beradigan aqliy va irodaviy fazilatlarini,odob-ahloq normalarini tarkib toptirish.

O'qituvchi-murabbiy o'rgatayotgan va o'quvchi-yoshlar ongli ravishda bajaradigan harakatlar, milliy harakatli o'yinlarni halq an'analari asosida o'zlashtirishda yoshlarga tashlilotchilik, tashabbuskorlik ko'nikmalarni tarbiyalashda yordam berishi kerak. Milliy harakatli o'yinlarni tashkil qilishda, o'rgatishda ularni mazmuni, o'zaro bog'liqligini unutmaslik, muayyan yoshdagi o'quvchilarni jismoniy tarviyalash vazifasiga muvofiq kelishini xisobga olish kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek millatining g'ururi, faxri, iftixori, ona-Vatanimizning ko'p asrlik o'chmas tarixida, uning jaxon miqiyosida fan, din, adabiyot, san'at soxasida tan olinadigan buyuk daxolarimiz, davlat arboblariimiz faoliyati va ijod

namunalarida, halqimiz o'z ona tiliga, milliy o'zligimiz aks etgan urf-odat, va qadriyatlarimizga sodiqligini yaqqol namoyon bo'lganligini guvohi bo'lganmiz. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, halq an'analari asosida o'quvchi- yoshlarimizni tarbiyalasak, ularga bilim bersak, milliy qadriyat va boy madaniy merosimiz bilan tanishtirsak, o'ylaymanki, o'quvchi-yoshlarga milliy xarakatli o'yinlarni o'rgatishda xalq an'alaridan foydalanishda yuksak samaradorlikka erishgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Usmonho'jaev T.,Meliev H."Milliy harakatli o'yinlar" Toshkent,"O'qituvchi"2000. 98-b URL: Ho`ja.gym-5 cheb. Run 5aa.1.html.
- 2.Ho'jaev F.,Murodov M.,Mirsalixov S. "Halq milliy o'yinlari" 1-qism.Toshkent,2001. 52-b Sayt uchitelya fizkultury VUE.
- 3.Qoraboev U."O'zbek halq o'yinlari", Toshkent,2001 45-b <http://www.pravo.by/document/?guid=39>
- 4.Qosimov A.Sh "Harakatli o'yinlar".Metodik qo'llanma,Toshkent," O'qituvchi"1983 74-b <http://www.nbrb.by/bv/articles/10328.pdf>